

“Paxtakor tumanining "Oqbuloq" va "Baxmal" FXHU lari hududida kollektorlarni qurish va rekonstruksiya qilish” obyektı atrof muhitga ta’sir bayonoti loyihasi (ZVOS) bo’yicha tanlov komissiyasining yig’ilish BAYONNOMASI № 19-Q

2022 yil 15 iyul

Jizzax shahri

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM ning 2022 yil 8 fevraldagi №6-ich-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan xarid komissiyasi a’zolari quyidagi tarkibda:

Komissiya raisi,

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM direktori

A.Qarshiboyev

Komissiya a’zolari,

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM bosh muhandisi

U.Mamarahimov

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM bosh xisobchisi

T.Bo’riboyev

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM bo’lim boshlig’i

M.Muradov

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM bo’lim boshlig’i

A.Achilov

Komissiya kotibi,

“Jizzaxsuvqurilishinvest” DM bo’lim boshlig’i

K.Usmanov

KUN TARTIBI:

“Paxtakor tumanining "Oqbuloq" va "Baxmal" FXHU lari hududida kollektorlarni qurish va rekonstruksiya qilish” obyektı atrof muhitga ta’sir bayonoti loyihasi (ZVOS) bo’yicha Etender.uzex.uz elektron platformasi orqali topshirilgan ofertalar bilan tanishib chiqib, g’olib tashkilotni aniqlash to’g’risida.

Tanlov o’tkazilishi to’g’risida e’lon 2022 yil 7-iyun sanasi “Etender.uzex.uz” saytiga №-112891 sonli lot raqami bilan joylashtirilgan.

Ushbu e’longa asosan quyidagi oferentlar tanlovda ishtirok etish o’z takliflarini elektron platformaga joylashtirgan:

1. “Eco-geo construction project group” MCHJ
2. “Davr proekt” MCHJ
3. “Khan Star” MCHJ
4. “Zeromax loyiha” MCHJ

Oferentlarning texnik qismi hujjatlari tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan o’rganilib chiqildi va talabgor tashkilotlarning elektron topshirilgan hujjatlari natijasiga ko’ra:

- | | | |
|--|---|------|
| 1. “Eco-geo construction project group” MCHJ | - | 85,5 |
| 2. “Davr proekt” MCHJ | - | 49,5 |
| 3. “Khan Star” MCHJ | - | 87,3 |
| 4. “Zeromax loyiha” MCHJ | - | 81,9 |

“Eco-geo construction project group” MCHJ, “Davr proekt” MCHJ, “Khan Star” MCHJ va “Zeromax loyiha” MCHJ larning topshirilgan hujjatlari belgilangan tartibda ramiylashtirilganligi aniqlanib, taqdim etilgan hujjatlar asosida ushbu talabgor tashkilotlarning moddiy va moliyaviy ahvolini, atrof muhitga ta’sir bayonoti loyihasi ishlarini bajarish uchun zarur bo’lgan mehnat resurslari va mutaxassislari mavjudligi, tanlovga qo’yilgan obyektiga o’xshash obyektlarda ishlaganlik tajriba va ko’nikmalari komissiya a’zolari tomonidan o’rganib chiqilib, buyurtmachi talabiga mosligi to’plangan ballga muvofiqligi aniqlandi.

Oferentlar tomonidan boshlang’ich qiymatdan eng kam takliflar Etender.uzex.uz elektron platformasi orqali mustaqil ravishda baholangan. Bunda komissiya a’zolarining ishtirokisiz baholanishi elektron platformada belgilangan.

Oferentlar tomonidan taqdim etilgan eng kam qiymatlar electron ishlab chiqilgan bayonnomada atroflicha ko’rsatib o’tilgan.

Tanlov komissiya a’zolari o’zaro fikr-mulohazalar bildirishib,

QAROR QILADI:

1. Oferentlarning taqdim qilgan barcha texnik ko’rsatgichlari tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan o’rganilib chiqilganligi va ularning taklif qilgan qiymat narxlarini inobatga olinsin.

2. Tanlov komissiyasi a’zolarining va elektron platforma tomonidan baholangan ballari to’liqligicha inobatga olinsin.

3. Oferent “Khan Star” MCHJ taklifiga ko’ra mazkur obyekt bo’yicha atrof muhitga ta’sir bayonoti loyihasi (Ekspertiza hulosasi bilan) ishlarini olib borish qiymati qo’shilgan qiymat solig’i bilan – 9 700 000 so’m. Ishlarni tugallash muddati tanlov o’tgan kundan boshlab 30 kun deb belgilansin.

4. Tanlov g’olibi bilan shartnoma (kontrakt) tuzish va keyingi masalalar yechimini hal qilish “Jizzaxsuvqurilishinvest” DM rahbariyatiga topshirilsin.

Tanlov komissiyasi yig’ilish bayonnomasi, “Jizzaxsuvqurilishinvest” DMning “Tanlov savdolarini tashkil etish va xo’jalik shartnoma munosabatlari bo’limi” tomonidan olib borildi, bayonnoma komissiya a’zolariga o’qib eshittirildi va uning tuzilishi to’g’ri deb topildi.


U.Mamarahimov




T.Bo’riboyev



M.Muradov



A.Achilov



Komissiya kotibi,

K.Usmanov



OBJEKTNING ATROF MUHITGA TA'SIR BAYONOTI

LOYIHASI SHARTNOMASI № 16

«16» 04 2022 yil

Jizzax shahri

«Jizzaxsuvqurilishinvest» DM (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi direktori A.Qarshiboev va «KHAN STAR» MCHJ (keyingi o'rinlarda «Ijrochi» deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari Yusupova S. mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. Shartnomaning predmeti

1.1 Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'iga ko'ra mazkur shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Ijrochi keyingi o'rinlarda "Xizmatlar" deb ataladigan quyidagi xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladi: "Paxtakor tumanining "Oqbulog" va "Baxmal" FXHU lari hududida kollektorlarni qurish va rekonstruksiya qilish ob'ektining atrof muxitga ta'sir bayonoti loyixasi (ZVOS) uchun"

1.3. Xizmatlar ko'rsatish yoki loyiha hujjatlarini tayyorlash 30 kunni tashkil etadi

1.4 Xizmatlar buyurtmachi yoki uning vakolatli vakili tomonidan xizmatlarni qabul qilish, topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin xizmat ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

2. Taraflarning huquq va majburiyatlari

2.1. Ijrochining majburiyatlari:

2.1.1. Xizmatlarni lozim bo'lgan sifatda bajarish

2.1.2. Xizmatlarni mazkur shartnomaning 1.3. bandida ko'rsatilgan muddatda to'liq hajmda bajarish.

2.1.3. Agar ijrochi xizmatlar ko'rsatish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtiradigan chetga chiqishga yul qo'ygan bo'lsa buyurtmachining talabiga asosan barcha aniqlangan kamchiliklarni 10 kun vakt ichida tekinga bartaraf etish.

2.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

2.2.1. Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat uchun oldindan **30% avans** to'lovini amalga oshiradi, **qolgan 70 %** to'lovlarni xizmatlarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan so'ng yakuniy to'lovlarni amalga oshiradi.

2.2.2. 2021- yil loyiha qiduruv ishlari uchun manzilli dastur tasdiqlanganidan so'ng xizmat kursatish shartnomasi tuzilib shundan so'ng moliyalashtirish amalga oshiriladi..

2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Har qanday vaqtda ijrochining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajarilayotgan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.

2.3.2. Dalolatnoma imzolanganunga qadar har qanday vaqtda, shartnomani bajarishdan voz kechib belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi haqidagi xabarnoma olgunga kadar ko'rsatilgan xizmatlar qismiga mutanosib qismini ijrochiga to'lash.

2.3.3. Mazkur shartnoma Jizzax viloyat G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabrga** qadar amal qiladi.

3. Shartnoma bahosi va hisoblashishlar tartibi

3.1. Mazkur shartnomaning umumiy bahosi ZVOS loyihasi va Ekspertiza hulosasi bilan birgalikda **9 700 000 (to'qqiz million yet yuz ming)** so'mmi **QQS bilan** tashkil qiladi.

3.2. Buyurtmachi tomonidan ijrochiga ko'rsatilgan xizmatlar bahosini to'lash ijrochining mazkur shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob hisob varag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4. Taraflarning javobgarligi

4.1. Mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan xizmatlar ko'rsatish muddatini buzganligi uchun ijrochi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.2. Xizmat ko'rsatuvchi buyurtmachini yozma ravishda ogoxlantirmasdan yordamchi loyixachiga loyiha qidiruv ishlarini bajarish uchun shartnoma tuzmaydi.

4.3. Ko'rsatilgan xizmatlar haqini o'z vaqida to'lamaganlik uchun buyurtmachi ijrochiga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortik bo'lmagan mikdorida penya to'laydi.

4.4. Taraflarning mazkur shartnomada ko'zda tutulmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fukoralik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qullanadi.

5. Fors-majori holatlari

5.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmagan kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

5.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

5.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

6. Nizolarni hal etish tartibi

6.1. Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

6.2. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng O'zbekiston Respublikasi Fuqoralik Kodeksi xamda "Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'grisida"gi 1998 yil 29-avgust Konuni asosida Jizzax viloyat tumanlararo ixtisodiy sudi orkali hal qilinadi.

7. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

7.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega.

7.2. Shartnomani taraflarning o'zora kelishiviga asosan yoki taraflar bir-birini 10 kun muddat oldin ogoxlantirgan holda shartnomani bekor qilishi mumkin.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat yozma shaklda tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng kuchga ega. Taraflarning har birida mazkur shartnomaning bir nusxasi mavjud.

8.3. Shartnomaga ilova _____

9. Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari

«BUYURTMACHI»

«Jizzaxsuvqurilishinvest» DM

Adres: Jizzax sh. Beshquvur ko'chasi 56 uy

INN: 200 344 104. OKED:70 220

Tel./faks: 72 226-91-60

sh/h: 1000 2186 0084 0170 4241 2170 *02*

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

G'aznachiligi

INN: 201 122 919

h/r: 2340 2000 3001 0000 1010

Toshkent shaxar XXKMMB. Bosh boshqarmasi

MFO:00 014

«IJRO QILUVCHI»

« KHAN STAR » MCHJ

Adres: Jizzax v, Sh.Rashidov t. Paxtaobod QFY

Tel./faks: +998 91 566 88 82

h/r: 2020 8000 5008 1495 7001

Bank nomi: Hamkor bank Jizzax viloyat bulimi

MFO: 01117

OKED: 41100

Direktor

A.Qarshiboev
A.Qarshiboev

M.O'

Dahbar

Yusupova S.
Yusupova S.

Huquqshunos: (buyurtmachi)

B.Usmonov
B.Usmonov